

102-08/82
25.12.2025.



“ТАСДИҚЛАЙМАН”
“Махам-Сhирчиқ” АЖ
бошқаруви раиси
Д.Э.Маннонов
2025 йил “25” декабр

**“Махам-Сhирчиқ” АЖда 2025 йил 12 ой давомида коррупцияга қарши
курашиш тизимида амалга оширилган ишлар юзасидан
ҲИСОБОТ**

**1. Корхонада коррупцияга қарши чора-тадбирлар дастури
бажарилиши тўғрисида умумий ахборот**

“Махам-Сhирчиқ” АЖ Бошқарув раиси томонидан тасдиқланган йиллик “Йўл харитаси”га асосан “Коррупцияга қарши ички назорат ва комплаенс бошқармаси” томонидан, корхона таркибидаги бошқарма, бўлим, бўлинма ва цехларда коррупциявий хатарлар мавжудлигини ўрганиш, давлат харидларини амалга оширишда қонунларга амал қилиш, шаффофликни таъминлаш ва коррупциявий ҳолат (манфаатлар тўқнашуви, таниш-билишчилик, қариндош-уруғчилик, лоббизм)ларни олдини олиш, хайрия ва ҳомийлик маблағларини ажратишни “Бизнес-режа” ва корxonанинг “Хайрия ва ҳомийлик фаолияти сиёсати” талабларидан келиб чиққан ҳолда, ташкиллаштириш ҳамда жамият тадбирлари учун харажатлар, ишбилармонлик тадбирларини ташкил этиш ва унда қатнашиш, совғалар бериш ҳамда совғалар олиш жараёнларини назорат ва мониторинг қилиш борасида ўрнатилган тартибда ишлар олиб борилмоқда.

2. Сиёсат ва тартиб-таомиллар

Коррупцияга оид қабул қилинган ҳужжатлар ва уларни таништирилганлик даражаси

“Махам-Сhирчиқ” АЖда коррупцияга қарши курашиш бўйича 15 та меъёрий ҳужжат тасдиқланган ва қабул қилинган.

Жумладан:

1. “Махам-Сhирчиқ” АЖнинг Коррупцияга қарши сиёсати;
2. “Махам-Сhирчиқ” АЖ Коррупциявий хавф-хатарларни баҳолаш услугиёти;
3. “Махам-Сhирчиқ” АЖ Манфаатлар тўқнашувини бошқариш бўйича низом;
4. “Махам-Сhирчиқ” АЖга алоқа каналлари орқали коррупцион хатти-харакатлар тўғрисида келиб тушган хабарларни қабул қилиш ва кўриб чиқиш регламенти;
5. “Махам-Сhирчиқ” АЖнинг ҳудудий ва таркибий бўлинмалари ходимларининг обод-ахлоқ ва коррупцияга қарши курашиш соҳасида ўқитишни ташкил қилиш бўйича йўриқномаси;
6. “Махам-Сhирчиқ” АЖ Контрагентларни текшириш йўриқномаси;
7. “Махам-Сhирчиқ” АЖга ишга қабул қилинаётган номзодларни текшириш бўйича йўриқномаси;
8. “Махам-Сhирчиқ” АЖнинг Коррупцияга қарши тартиб-таомилларнинг самарадорлигини мониторинг ва назорат қилиш услугиёти;

9. "Махам-Чирчиқ" АЖнинг Коррупцияга қарши кураш тизимининг ҳолати тўғрисидаги ҳисоботни шакллантириш ва тақдим этиш бўйича низом;
10. "Махам-Чирчиқ" АЖ ходимларининг коррупциявий хатти-харакатлари ва одоб-ахлоқ қоидаларини бузиш ҳолатлари устидан ички хизмат текширувлари ўтказиш бўйича регламенти;
11. "Махам-Чирчиқ" АЖнинг Касбий одоб кодекси;
12. "Махам-Чирчиқ" АЖда Совғалар бериш ва олиш, бизнес-тадбирларни ташкил этиш ва иштирок этиш, вакиллик харажатларини амалга ошириш бўйича сиёсати;
13. "Махам-Чирчиқ" АЖнинг Ҳайрия ва хомийлик сиёсати;
14. "Махам-Чирчиқ" АЖ томонидан тузиладиганган шартномаларни келишиш, имзолаш ва ижро этиш бўйича;
15. "Махам-Чирчиқ" АЖнинг Коррупцияга қарши ички назорат ва комплаенс бошқармаси Низоми.

Мазкур меъёрий ҳужжатларнинг талабларидан келиб чиққан ҳолда, акциядорлик жамияти ишчи-ходимларини одоб-ахлоқини ягона принциплари ва қоидаларини белгилаш, уларни ўз хизмат вазифаларини виждонан ва самарали бажаришлари учун қулай шарт-шароитлар яратиш, давлат хизматида лавозим ваколатларини суистеъмол қилишнинг олдини олиш мақсадида, юқорида келтирилган ҳужжатлар корхонанинг ҳар бир бўлим, бўлинма ва цехлар раҳбарларига юборилиши билан бирга, улар билан ўтказилган семинар, тренинг, давра суҳбатлар ва очик мулоқотлар вақтида ишчи-ходимларга етказилиши таъминланиб келинмоқда.

Шунингдек, корхона ишчи-ходимлари доимий танишганлигини таъминлаш мақсадида, жамиятнинг веб-сайти ва ички ахборот алмашинув тизимидаги(<https://www.maxam-chirchiq.uz/uz/about/korruptsiyaga-arshi-kurashish/>) норматив ҳужжатлар бўлимига коррупцияга қарши курашиш бўйича барча меъёрий ҳужжатлар доимий равишда фойдаланиш учун жойлаштирилган.

3. Хавф-хатарларни баҳолаш

Корхонанинг барча таркибий бошқарма, бўлим, бўлинма ва цехларда коррупцион хавф-хатарларни баҳолаш амалга оширилиб, **марказий бошқарув аппарати кесимида:**

- бошқарув раиси, бош директор, бошқарув раисининг биринчи ўринбосари-ишлаб чиқариш бўйича директор, тижорат директор, бошқарув раисининг транспорт бўйича ўринбосари, бошқарув раисининг ижтимоий-иқтисодий масалалари бўйича ўринбосари, бошқарув раисининг маслаҳатчилари;

бошқарма ва бўлимлар кесимида:

- инвестиция жалб қилиш ва инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш бўлими бошлиғи, моддий-техник таъминоти бошқармаси бошлиғи, ташқи иқтисодий алоқалар бошқармаси бошлиғи, ускуналар ва моддий-техника таъминоти бўлими бошлиғи, тайёр маҳсулотларни сотиш бошқармаси бошлиғи, биржа орқали сотиб олиш ва сотиш бўлими бошлиғи, сотиш бўлими бошлиғи, бош бухгалтер, молия ва иқтисод бошқармаси бошлиғи, молия бўлими бошлиғи, иш ҳақи ва меҳнатни рағбатлантириш бўлими бошлиғи ва ходимлар билан ишлаш бошқармаси бошлиғи лавозимлари юқори ва ўрта даражадаги хавф-хатарлар баҳоланган. Қолган таркибий бўлинмаларда коррупциявий хавф-хатарлар паст даражада баҳоланган.

Коррупциявий хавф-хатарларнинг тоифалар бўйича:

№	Коррупциявий хавф хатарнинг тавсифи	Коррупциявий хавф хатарнинг даражаси (паст, ўрта, юқори)	Функцияларнинг (жараёнларни) амалга оширишга масъул бўлган лавозим
1.	Раҳбарият		
1.1	“Махат-Chirchiq” АЖ бошқарув аппарати, бошқарма, бўлим, бўлинма, цехлар раҳбари ва уларни бошқа лавозимларга тайинловларда коррупциявий хавф юзага келиши ҳамда ҳақиқий даромадни солиқдан яшириш йўли билан яширин иқтисодни ташкил этиш эҳтимоли мавжуд. Бундан ташқари, харид жараёнида манфаатлар тўқнашувига йўл қўйиш.	Юқори	Бошқарув раиси
1.2	АЖ, унинг таркибий ва ҳудудий бўлинмаларида ишловчи айрим раҳбар ва масъул ходимларни қўллаб-қувватлаш, улар томонидан содир этилаётган ҳар қандай қонун бузилиши билан боғлиқ ҳаракатларни ёки ҳаракатсизликни мансаб ваколатидан фойдаланган ҳолда яшириш, шунингдек бевосита ёки билвосита аралашуви билан коррупциявий хавф юзага келиш эҳтимоли мавжуд.	Юқори	Бошқарув раисининг ўринбосарлари
2.	Ички аудит хизмати		
2.1	Моддий манфаатдорлик эвазига ялпи текширишда аниқланган камчиликларни, шу жумладан жиноят аломати мавжуд хатоликларни умумлаштирилган далолатномада кўрсатмаслик, айбдор ходимларга нисбатан тегишли интизомий жазо чораларини қўллаш юзасидан раҳбариятга тегишли таклифларни киритмасликда коррупциявий хавф мавжуд.	Юқори	Ички аудит хизмати раҳбари
2.2	Моддий манфаатдорлик эвазига ялпи текширишда аниқланган камчиликларни, шу жумладан жиноят аломати мавжуд хатоликларни умумлаштирилган далолатномада кўрсатмасликда коррупциявий хавф мавжуд.	Ўрта	Ички аудит хизмати аудитори
3.	Бошқарув раисининг маънавий маърифий ишлар самарадорлигини ошириш, давлат тили тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя этилишини таъминлаш масалалари ва Ёшлар масалалари бўйича маслаҳатчилари		
3.1	Мансаб ваколатидан келиб чиққан ҳолда, манфаатдорлик эвазига ёки айрим раҳбар ва масъул ходимларни қўллаб-қувватлаш, уларни қўпол хатоларига яъни, ўларнинг ҳаракат ёки ҳаракатсизлиги оқибатида келиб чиққан қонун бузилишига ён босиши орқали коррупциявий хавф юзага келиш эҳтимоли мавжуд	Юқори	Бошқарув раисининг маслаҳатчиси
4.	Бухгалтерия		
4.1	Жамият ва унинг таркибий бўлинмалари ходимларига иш ҳақлари ва уларга тенглаштирилган тўловларни ҳисоблаш жараёнида ҳақиқатда ишламаган, ишда бўлмаган ходимларга иш ҳақлари ҳисоблаш йўли билан ўзлаштиришда коррупциявий хавфлар Шу билан бирга, муддати ўтган дебитор қарздорлик тўғрисидаги маълумотларни учинчи тараф манфаатлари йўлида яшириш шунингдек, номоддий активлар, молиявий сармоялар, товар моддий захира ва пул маблағлари билан боғлиқ ўзаро ҳисоб китобларда коррупциявий хавф юзага келиш эҳтимоли мавжуд.	Юқори	Бош ҳисобчи
4.2	Жамият ва унинг таркибий бўлинмалари ходимлари томонидан жамиятда олиб борилаётган молиявий, қирим-чиқим маблағлар, товар-моддий бойликларни айланмасини ўз вақтида ҳисобини олиб бормасдан айрим раҳбар ходимларнинг ноқонуний молиявий операцияларини яшириш билан боғлиқ хавфлар юзага келиш	Ўрта	Бухгалтерия ходимлари

	эҳтимоли мавжуд.		
5.	Ахборот ва ижро интизомини назорат қилиш бўлими		
5.1	Ижро интизомини назорат қилиш жараёнида ўз вақтида бажарилмаган ёки муддатидан кечиктириб бажарилган топшириқлар бўйича таниш-билишчиликка йўл қўйиш асосида раҳбариятга ноҳолис ахборот етказишда коррупциявий хавфлар юзага келиши эҳтимоли мавжуд.	Ўрта	Бўлим бошлиғи
6.	Корпоратив бошқарувни мувофиқлаштириш бўлими		
6.1	Йиғилиш баённомаларини тайёрлаш, расмийлаштириш жараёнларини кечиктириш, қарорлар қабул қилишда “Ўзкимёсаноат” АЖнинг манфаатларига ёки Кўзатув кенгаши аъзоларини манфаатларига мувофиқ бўлмаган ва бирон-бир жисмоний ҳамда юридик шахсни манфаатларини кўзлаб бандларни киритиш орқали коррупциявий омиллар юзага келиши эҳтимоли мавжуд.	Юқори	Бўлим бошлиғи
7.	Ҳуқуқшунослик бўлими		
7.1	Жамиятни суд билан боғлиқ жараёнида яни судга даъво киритган томон манфаатини кўзлаб ҳаракат қилиш ёки ҳаракатсизликда коррупциявий хавф юзага келиш эҳтимоли мавжуд. Шунингдек, “Махам-Сирчиқ” АЖ томонидан тузилаётган шартномаларда баъзи бир жисмоний ёки юридик шахслар манфаатларини кўзлаб ҳаракат қилиш ёки улар томонидан шартнома шартлари бажарилмаганда, маълум бир ноқонуний ҳақ эвазига пеня ёки жарималарни қўллашда ҳаракатсизлик қилишда коррупциявий хавфлар юзага келиши эҳтимоли мавжуд.	Юқори	Бошқарма бошлиғи
7.2	“Махам-Сирчиқ” АЖ томонидан тузилаётган шартномаларда баъзи бир жисмоний ёки юридик шахслар манфаатларини кўзлаб ҳаракат қилиш ёки улар томонидан шартнома шартлари бажарилмаганда, маълум бир ноқонуний ҳақ эвазига пеня ёки жарималарни қўллашда уларга ён босган ҳолда ҳаракатсизлик оқибатида коррупциявий хавфлар юзага келиши эҳтимоли мавжуд.	Ўрта	Бошқарма ходимлари
8.	Капитал қурилиш бошқармаси		
8.1	“Махам-Сирчиқ” АЖда капитал қурилиш ишларида ўзини ва учинчи шахсни манфаатини кўзлаб бажариладиган ишларга қўшиб ёзиш ёки учинчи шахслар томонидан шартнома асосида бажарилиши лозим бўлган ишларни корхона ишчиларини ноқонуний равишда ишга жалб қилган ҳолда яширин тарзда амалга оширилиши, шунингдек лойиҳа ҳужжатларига ўзгартиришлар киритиш билан боғлиқ коррупциявий хавфлар юзага келиши эҳтимоли мавжуд.	Юқори	Бошқарма бошлиғи
8.2	“Махам-Сирчиқ” АЖда капитал қурилиш ишларида учинчи шахсни манфаатини кўзлаб бажариладиган ишларга қўшиб ёзиш, лойиҳа ҳужжатларига ўзгартиришлар киритиш билан боғлиқ коррупциявий хавфлар юзага келиши эҳтимоли	Ўрта	Бошқарма ходимлари
9.	Коррупцияга қарши ички назорат ва комплаенс бошқармаси		
9.1	Ўтказилган хизмат текширувида аниқланган хато ва камчиликларни яшириш, текширув якуни билан айбдор ходимларга енгил жазо чораси қўллаш ёки умуман қўллагаслик юзасидан раҳбариятга таклифлар киритиш, шунингдек, хизмат текшируви хулосаси ва тўпланган ҳужжатларни ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга юбормаслик, номзодларни ўрганиш ва лавозимга тайинлашда коррупциявий хавф юзага келиш эҳтимоли мавжуд.	Юқори	Бошқарма бошлиғи
9.2	Мансаб ваколатидан фойдаланган ҳолда, тармоқ корхоналарда аниқланган ёки ахбороти олинган ҳуқуқбузарликларни яширишда коррупциявий хавф юзага келиш эҳтимоли мавжуд.	Ўрта	Бошқарма ходимлари

10.	Техник назорат бўлими		
10.1	АЖнинг таркибий цехларида ишлаб чиқарилаётган тайёр махсулотларни техник регламенти тўғрисида раҳбариятга ҳолисона ахборот бермаслик шунингдек, Жамиятда ишлаб чиқарилаётган тайёр махсулотлар сифатига ҳамда корхона эҳтиёжи учун харид қилиб олинаётган ҳар қандай товарларга бундан ташқари, махсулотларни ишлаб чиқариш учун фойдаланиб келинаётган қўрилмалар ёки ускуналарга саноат хавфсизлиги бўйича мувофиқлик сертификатларини ўз вақтида олишда ҳаракат ёки ҳаракатсизлик билан ноҳолисона баҳо бериш орқали коррупциявий хавфлар юзага келиши эҳтимоли мавжуд.	Юқори	Бўлим бошлиғи
10.2	АЖнинг таркибий цехларида ишлаб чиқарилаётган махсулотлар кўрсаткичига ноқонуний ўзгартишлар киритиш ва харид қилинаётган товарларга нисбатан ноҳолисона баҳо бериш оқибатида коррупциявий хавфлар юзага келиши эҳтимоли мавжуд.	Ўрта	Бўлим ходимлари
11.	Идоравий ҳарбийлашган қўриқлаш бўлими		
11.1	“Махам-Chirchiq” АЖ маъмурий ҳудудига ҳар қандай товарларни кириб-чиқишини етарли даражада назорат қилмаслик орқали ёки ҳаракат ёки ҳаракатсизликка йўл қўйган ҳолда, АЖ масъул мансабдор шахслари, шунингдек ишчи-ҳодимлари билан тил бириктириб жамиятнинг тайёр махсулотлари ва товар моддий бойликларини талон-тарож қилинишида коррупциявий ҳолатлар содир этилиши мумкин.	Юқори	Хизмат бошлиғи
11.2	“Махам-Chirchiq” АЖ маъмурий ҳудудига кириб-чиқишни етарли даражада назорат қилмаслик ёки эътиборсизлик, яъни ҳаракат ёки ҳаракатсизлиги билан корхона ишчи-ҳодимлари билан тил бириктириб жамиятнинг тайёр махсулотлари ва товар моддий бойликларини талон-тарож қилинишида коррупциявий хавфи мавжуд.	Ўрта	Хизмат ходимлари
12.	Ахборот коммуникация технологиялари бошқармаси		
12.1	Мансаб ваколатидан фойдаланган ҳолда харид, ҳисоблаш қўрилмалари ва серверларнинг техник кўрсаткичларини белгиланган талабларга мувофиқлигини таъминламаслик, жамиятга тегишли ахборот ресурсларини назоратга олмаслик билан боғлиқ коррупциявий хавф юзага келиш эҳтимоли мавжуд.	Ўрта	Бошқарма бошлиғи
13.	Биринчи ва иккинчи бўлимлар		
13.1	Махфий ҳужжатлар маълумотларини учинчи шахсларга ёки махфий ҳужжатлар билан ташишга рухсати бўлмаган шахсларга ошқор қилиш билан боғлиқ коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд	Ўрта	Биринчи бўлим бошлиғи
14.	Ходимлар билан ишлаш бошқармаси		
14.1	Номзодларни ишга қабул қилишда, лавозимга тайинлашда қариндош-уруғчилик, маҳаллийчилик непотизм, фаворитизмга ёки шафеликка йўл қўйиш орқали ёки соҳага оид ички меъёрий ҳужжатлар талабларини тўлиқ бажармаслик оқибатида коррупциявий хавфлар юзага келиши эҳтимоли мавжуд.	Юқори	Бошқарма бошлиғи
14.2	Ходимларнинг ишга ўз вақтида келиш ва кетиши, меҳнат шартномаси шартларининг қўпол равишда бузилиши ҳолатларини яшириш, аниқланганда, интизомий жазоларнинг қўллаш ёки меҳнат шартномасини иш берувчи томонидан бир томонлама тугатиш бўйича таклифлар бермаслик натижасида коррупциявий хавфлар эҳтимоли мавжуд.	Ўрта	Бўлим ходимлари
14.3	Юқори турувчи назорат функциясига эга бўлган ташкилотлар, яъни Вазирлар Маҳкамаси ёки Президент Администрациясидан келиб тушадиган ёки уларга юбориладиган ҳужжатларни белгиланган муддатларда юбормаслик ёки раҳбариятга тақдим этмасликда	Ўрта	Офис менежер ва ходимлари

	коррупциявий омилларни юзага келиш эҳтимоли мавжуд.		
15.	Малакани баҳолаш маркази		
15.1	Номзодларни ишга қабул қилишда ва ходимларни лавозимга тайинлашда ўтказиладиган синовларда қариндош-уруғчилик, маҳаллийчилик непотизм, фаворитизмга ёки шафеликка йўл қўйиш орқали ёки соҳага оид ички меъёрий ҳужжатлар талабларини тўлиқ бажармаслик оқибатида коррупциявий хавфлар юзага келиши эҳтимоли мавжуд.	Ўрта	Бўлим бошлиғи
16.	Транспорт бўлими, темир йўл ва автотранспорт цехлари		
16.1	Жамиятнинг хизмат ва махсус транспорт воситаларини таъмирлаш, ёқилғи мойлаш материалларини, эҳтиёт қисмларни харид қилиш ва транспорт воситаларини техник жиҳатдан носозлигини кўрсатиш ва ўрнига янги техника воситаларини сотиб олиш таклифини киритиш орқали коррупциявий хавфлар юзага келиши эҳтимоли мавжуд.	Юқори	Транспорт бўлими бошлиғи
16.2	Жамиятнинг хизмат ва махсус транспорт воситаларини таъмирлаш, ёқилғи мойлаш, эҳтиёт қисмларни харид қилишда қўшиб ёзиш орқали коррупциявий хавфлар юзага келиши эҳтимоли мавжуд.	Ўрта	Транспорт бўлими ходимлари
16.3	Жамиятнинг Темир йўл махсус транспорт воситаларини таъмирлаш, ёқилғи мойлаш материалларини, эҳтиёт қисмларни харид қилиш ва транспорт воситаларини техник жиҳатдан носозлигини кўрсатиш ёки темир йўл қисмларини ўрнатилишида юзага келиши мумкин бўлган коррупциявий хавфлар мавжуд.	Юқори	Темир йўл цехи бошлиғи
16.5	Жамиятнинг хизмат ва махсус транспорт воситаларини таъмирлаш, ёқилғи мойлаш, эҳтиёт қисмларни харид қилиш ва транспорт воситаларини техник жиҳатдан носозлигини кўрсатиш орқали ҳамда ҳайдовчиларни лавозимини ўзгаришида ёки янги ишга кираётган ҳайдовчилардан ноқонуний фойда олиш орқали коррупциявий хавфлар юзага келиши эҳтимоли мавжуд.	Юқори	Автотранспорт цехи бошлиғи
16.6	Жамиятнинг хизмат ва махсус транспорт воситалари орқали амалга оширилган ишларга ва сарфланган ёқилғи мойлаш маҳсулотларига қўшиб ёзиш орқали коррупциявий хавфлар юзага келиши эҳтимоли мавжуд.	Ўрта	Автотранспорт цехи ишчи-ходимлари
17.	Ташки иқтисодий алоқалар бўлими		
17.1	“Ўзкимёимпэкс” АЖ томонидан талаб этилаётган ҳужжатларни ўз вақтида тақдим этмаслик ёки жамият манфаатига зид келишув ёки учинчи томон манфаати учун ноҳолислик натижасида коррупциявий омиллар юзага келиш эҳтимоли мавжуд.	Ўрта	Бошқарма бошлиғи
18	Тайёр маҳсулотни сотиш бўйича бошқармаси		
18.1	Ички бозор талабларини инобатга олинмаслик ҳисобига минерал ўғитларга бўлган талабни ошириш натижасида коррупциявий хавфларни юзага келишига олиб келиши мумкин. Шунингдек, ваколатли ижара омборларини танлашда иштирокчиларни тўлиқ ўрганилмаслиги натижасида манфаатлар тўқнашуви вужудга келиши хавфи мавжуд.	Ўрта	Бошқарма бошлиғи
19	Хўжалик бўлими		
19.1	“Махам-Chirchiq” АЖ марказий аппаратида амалга ошириладиган курилиш, таъмирлаш ишларида сифат кўрсаткичларига эътиборсиз бўлиши оқибатида коррупциявий хавф юзага келиш эҳтимоли мавжуд.	Ўрта	Бўлим бошлиғи
20	Моддий-техник таъминоти бошқармаси		
20.1	Сотиб олинадиган ускуна, қўрилма ва жиҳозларни сифатини назорат қилмаслик, сертификатларини талаб қилмаслик оқибатида коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд	Юқори	Бошқарма бошлиғи
21	Моддий техника таъминоти ва жиҳозлаш, импорт, электрон савдо орқали сотиб олиш бўлимлари ҳамда асбоб ускуна, хом ашё ва материалларни бутлаш цехи		
21.1	АЖнинг эҳтиёжи учун сотиб олинадиган моддий техника, жиҳоз,	Юқори	

	асбоб ускуна, хом ашё ва материалларни электрон бозордан сотиб олишда “Давлат харидлари тўғрисидаги қонун” талабларига зид равишда коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд. Шунингдек, жамият талабларига зид бўлган товар моддий бойликларни сотиб олиб жамият ҳисобига кирим қилиш орқали коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд		Бўлим ва цех бошлиқлари
21.2	АЖнинг эҳтиёжи учун сотиб олинган моддий техника, жихоз, асбоб ускуна, хом ашё ва материалларни жамият талаблар бўйича текширмаслик билан коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд	Ўрта	Бўлим ва цех ходимлари
22	Сотиш, биржа орқали тайёр маҳсулотларни сотиш, экспорт ва декларация қилиш бўлимлари		
22.1	Жамият томонидан ишлаб чиқарилган барча тайёр маҳсулотларнинг ички ва ташқи бозорлар конвектурасини таҳлилини ўз вақтида олиб бормаслик коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд	Ўрта	Бўлим бошлиқлари
23.	Минерал ўғитларни сотишни назорат қилиш бўлими		
23.1	Жамиятнинг тайёр маҳсулотларини биржа савдоларига қўйилишида ҳаракат ёки ҳаракатсизлик орқали коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд	Ўрта	Бўлим бошлиғи
23.2	Жамиятнинг тайёр маҳсулотларини биржа савдолари орқали қўйилишида ҳаракатсизлик орқали коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд	Ўрта	Бўлим ходимлари
24	Маҳсулотни таҳлил қилиш ва жаҳон бозорига чиқариш бўлими		
24.1	Жамиятнинг доимий ҳамкорларига бериладиган совғаларни бозор нархларидан юқори нархларда сотиб олиш ёки “Давлат харидлари тўғрисидаги қонун” талабларига зид равишда расмийлаштиришда коррупциявий хавф-хатарлар юзага келиши эҳтимоли мавжуд.	Ўрта	Бўлим бошлиғи
25.	Стратегик ривожланиш ва бизнесни режалаштириш бўлими		
25.1	АЖнинг таркибий ва тармоқ бўлинмалари томонидан йиллик бизнес режаларидаги ҳаражатлар кўрсаткичларини ўзларининг манфаатларига мослаб тузиш ҳамда тўсиқларсиз муваффақиятли топшириш, ходимларга мукофот пуллари ажратилиши билан боғлиқ коррупциявий хавфлар юзага келиши эҳтимоли мавжуд.	Юқори	Бўлим бошлиғи
25.2	АЖнинг таркибий ва тармоқ бўлинмалари томонидан топширилаётган бизнес режаларда ишлаб чиқариш кўрсаткичларини юқори кўрсатиш ҳисобига мазкур режадаги бир бирлик маҳсулотлар ишлаб чиқариш билан боғлиқ таннархларини сунъий пасайтириш ёки кўпайтириш билан боғлиқ коррупциявий хавфлар юзага келиши эҳтимоли мавжуд.	Ўрта	Бўлим ходимлари
26.	Ишлаб чиқариш ҳаражатларини таҳлил қилиш бўлими		
26.1	Маълум бир ҳисобот даври учун бизнес режада режалаштирилган таннарх ҳаражати билан ҳақиқатдаги таннарх ҳаражатлари ўртасидаги тафовутнинг сабаблари ўрганилмаслиги ёки текширилмаслиги натижасида юзага келадиган коррупциявий хавф-хатарлар эҳтимоли мавжуд.	Ўрта	Бўлим бошлиғи
27.	Молия иқтисодиёт бошқармаси, иш ҳақи ва меҳнатни рағбатлантириш ва молия бўлимлари		
27.1	Жамият ва унинг таркибий бўлинмалари томонидан ҳомийлик ва хайрия ҳаражатлари ажратилиши ҳамда амалга оширилиши ҳамда ишчи-ходимларга иш ҳақи ва рағбатлантиришлар ёзиш билан боғлиқ жараёнларда коррупциявий хавфлар юзага келиши мумкин. Шу билан бирга, жамият эҳтиёжлари учун харид қилиш жараёнида мавжуд тартиб-таомилларини тўлиқ амалга оширмаслик натижасида коррупциявий омиллар юзага келиши мумкин.	Юқори	Бошқарма ва бўлим бошлиғи
27.2	Жамият ва унинг таркибий бўлинмаларининг бизнес режа ва бюджетини тузиш ва уларга ўзгартиришлар киритишда, дебитор ва	Ўрта	Бошқарма ва бўлим

	кредитор харажатлар ошиб кетишини назоратга олмаслик, кимё саноати корхоналарини қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш жамғармаси ҳисобидан молиялаштириш масаласини ўрганиш ва хулоса бериш, ишчи-ходимларни рағбатлантириш жараёнида коррупциявий хавф юзага келиш эҳтимоли мавжуд.		ходимлари
	Мансаб ваколатидан фойдаланган ҳолда бизнес режа кўрсаткичларини кўриб чиқиш ва текшириш даврида коррупциявий хавф юзага келиш эҳтимоли мавжуд.	Ўрта	Бошқарма ходимлари
28.	Инвестицияларни жалб қилиш ва инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш бўлими		
28.1	Маълум бир инвестицион лойиҳаларни амалга оширишда ёки ушбу лойиҳалар учун ҳамкорларни, пудратчиларни, молиявий ташкилотларни танлаб олишда Жамиятнинг таркибий бўлинмалари учун фойдаси бўлмаган ёки учинчи томон манфаати учун ноҳолислик натижасида коррупциявий омиллар юзага келиш эҳтимоли мавжуд. Хорижга хизмат сафарлари жараёнида ҳамкорлардан ички тартибга номувофиқ бўлган совғалар олиш, хизмат сафари харажатларни асоссиз ошириш натижасида коррупциявий хавфлар мавжуд.	Ўрта	Бўлим бошлиғи
29.	Инвестицион лойиҳаларини шакллантириш ва амалга ошириш бўлими		
29.1	Инвестицион лойиҳалар учун капитал қурилиш ишларини амалга ошириб, объектлардаги қурилиш-монтаж ишларини сифатсиз ва тез муддатларда топширишда коррупциявий хавфлар юзага келиши эҳтимоли мавжуд.	Ўрта	Бўлим бошлиғи
30.	Ижтимоий ривожлантириш бўлими		
30.1	Жамият ишчи-ходимларни иссиқ овқат тайёрлаш ва бошқа тегишли махсулотлар харид қилиш жараёнида ўз манфаати ва бундан манфаатдор бўлган контрагент ёки учинчи шахс манфаатларини кўзлаш орқали коррупциявий хавфлар юзага келиши эҳтимоли мавжуд	Ўрта	Бўлим бошлиғи
31.	Тиббий реабилитация маркази		
31.1	Жамият ишчи-ходимларига ажратилаётган дори-дормонларни ишлатилишида ва бошқа марказ ихтиёжи учун олнаётган товарларни сотиб олинишида, шунингдек Жамият ишчи-ходимларига ташхис қўйиш варақаларида асоссиз ёзувлар киритиш орқали коррупциявий хавфлар юзага келиши эҳтимоли мавжуд	Ўрта	Марказ раҳбари
32.	Таъмирлаш қурилиш хўжалик бошқармаси		
32.1	Бажарилган ишларга кўшиб ёзиш, сарфланаётган қурилиш махсулотларни ҳисоботини юритишда ўз манфаатини кўзлаш билан боғлиқ коррупциявий хавфлар юзага келиши эҳтимоли мавжуд	Юқори	Бошқарма бошлиғи
33.	Ишчилар таъминоти бўлими		
33.1	Жамиятнинг ишчи-ходимларига иссиқ овқат тайёрлаш учун харид қилинган озиқ-овқат махсулотларни сарфланиши ҳисоботини юритишда ҳаракатсизлик орқали коррупциявий хавф келиб чиқиш эҳтимоли мавжуд	Ўрта	Бўлим бошлиғи
34.	Ишлаб чиқаришни мувофиқлаштириш бошқармаси		
34.1	Назорат функциясига эга бўлган ташкилотларга ҳисоботларни топшириш жараёнида ҳамда уларни белгиланган муддатларда тайёрламаслик, кимё саноатига доир норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва улар лойиҳаларини тайёрлашда орқали коррупциявий омилларни юзага келиш эҳтимоли мавжуд.	Юқори	Бошқарма бошлиғи
34.2	Корхонанинг ҳар ойда, чоракда, ярим йилда ва йилда ишлаб чиқарилган махсулотлар турлари, уларнинг миқдорлари тўғрисида ҳисобот топширган вақтда ҳисоботларда маълумотларни нотўғри бериш, ишлаб чиқариш, сотиш каби миқдор кўрсаткичларини	Ўрта	Бошқарма ходимлари

	яшириш ёки ўзгартириш, хужжатларни сохталаштириш билан боғлиқ коррупциявий омиллар мавжуд		
35.	Сифатни бошқариш бўлими		
35.1	Жисмоний ва юридик шахслар томонидан таркибий бўлинмаларига ишлаб чиқаришда фойдаланиладиган ускуналарни тижорат таклифини қилиш жараёнида ушбу корхоналардаги техник стандартлар, параметрларга мос келиши ёки йўқлигини тўғрисида ноҳолисона ёндашиши натижасида коррупциявий хавфлар юзага келиши эҳтимоли мавжуд.	Ўрта	Бўлим бошлиғи
35.2	АЖнинг таркибий бўлинмаларидаги асосий ва ёрдамчи ишлаб чиқариш воситалари жорий ва капитал таъмирдан ўтказилганидан сўнг уларни кейинги иш унуми, фойдали иш коэффиценти ошганига баҳо берганда юзага келиши эҳтимоли бўлган коррупциявий хавф-хатарлар мавжуд.	Ўрта	Бўлим ходимлари
36.	Инновация, маҳаллийлаштириш ва саноат кооперацияси бўлими		
36.1	Инновацияларни қўллаб-қувватлаш фондидан Жамият ҳамда унинг таркибий бўлинмалари учун фойдаси бўлмаса-да, учинчи тараф манфаатларини таъминлаш мақсадида уларни молиялаштириш, маҳаллийлаштириш бўйича илмий тадқиқот институтлари, олий таълим муассасалари билан ҳамкорлик жараёнида улар томонидан бажарилмаган ишларни ҳақиқатда бажарилган деб кўрсатишда коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд.	Ўрта	Бўлим бошлиғи
37	Меҳнат муҳофазаси, хавфсизлик техникаси ва экология бўлими		
37.1	Тармоқ корхоналарида ўтказиладиган идоравий назорат тадбирлари жараёнида ҳамда бахтсиз ходиса содир бўлган корхонада ўтказилаётган хизмат суриштирувларини ноҳолисона ўтказиш билан боғлиқ коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд.	Ўрта	Бўлим бошлиғи
37.2	Жамият ва унинг таркибий бўлинмаларида авария, бахтсиз ҳодисалар, экологик вазият, ёнгин хавфсизлиги қоидалари, объектларни кўриқлаш билан боғлиқ муаммо ва камчиликларни ўз вақтида аниқлаш ҳамда бартараф этиш билан боғлиқ коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд.	Ўрта	Бўлим ходимлари
38.	ХГҚО, санитар лаборатория ва оқова сувларни нейтраллаш ва тозалаш цехи		
38.1	Меҳнатни муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси, табиатни муҳофазаси, санитария ҳамда оқова сувларни нейтраллаш ва тозалаш бўйича норматив хужжатлар талаблари ноҳолисона бажариш билан боғлиқ коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд	Ўрта	Бўлимлар ва цех бошлиқлари
39.	Бош механик бўлими		
39.1	Жамиятнинг цехларида капитал таъмирлаш ишлари бўйича ўтказиладиган тендер танловларида учинчи юридик шахсларни манфаатини кўзлаб танловга шартлар киритиш билан боғлиқ коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд	Юқори	Бош механик
39.2	Жамиятнинг цехларидаги технологик ускуналарни ишлаши ва ундан фойдаланиш талабларини назорат ёки кўзатув олиб бормаслик, улар ҳақида жамият раҳбариятига сохта маълумотлар тақдим этиш билан боғлиқ коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд	Ўрта	Бўлим ходимлари
40.	Бош энергетик бўлими		
40.1	Жамиятнинг электр энергия ва сув сарфи бўйича маълумотларни юритиш, электр энергия қурилмалари, ускуналари ва бошқа жихозларни тўғри ишлашини таъминлашда ҳаракатсизлик кўрсатиш орқали коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд	Ўрта	Бош энергетик

41.	Кадрлар тайёрлаш бўлими		
41.1	Жамиятда бошқарув лавозимларга кадрларни тайёрлаш бўйича ўқув курслари тугатганлигига оид маълумотларни тайёрлаш билан коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд	Ўрта	Бўлим бошлиғи
42.	Фавқулотда вазиятлар бўлими		
42.1	Жамият таркибидаги бўлинмаларда фавқулотда вазиятлар бўйича аниқланган камчиликларни баённомаларда кўрсатмаслик билан боғлиқ коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд	Ўрта	Бўлим бошлиғи
43.	Бош меъмор бўлими		
43.1	Жамият ва унинг таркибий бўлинмалари биноларини таъмирлашда бажарилган ишларга ва таъмирлашда сарфланган махсулотларга ўз манфаатини кўзлаб коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд	Юқори	Бош меъмор
43.2	Жамият ва унинг таркибий бўлинмалари биноларини таъмирлашда бажарилган ишларни ва таъмирлашда сарфланаётган махсулотларни ҳисботини юритишда коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд	Ўрта	Бўлим ходимлари
44.	Бош метролог бўлими		
44.1	АЖ ва унинг таркибий бўлинмаларига урнатилган назорат ўлчов асбоблари ва автоматика қурилмаларини ишлашини назорат қилмаслик билан боғлиқ коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд	Юқори	Бўлим бошлиғи
44.2	АЖ ва унинг таркибий бўлинмаларига урнатилган назорат ўлчов асбоблари ва автоматика қурилмалари сертификатлаштириш жараёнларда коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд	Ўрта	Бўлим ходимлари
45.	Саноат хавфсизлигини ва техник назорат бўлими		
45.1	Жамиятда ишлаб чиқарилаётган тайёр махсулотлар сифатига ҳамда корхона эҳтиёжи учун харид қилиб олинаётган ҳар қандай товарларга шунингдек, махсулотларни ишлаб чиқариш учун фойдаланиб келинаётган қурилмалар ёки ускуналарга саноат хавфсизлиги бўйича мувофиқлик сертификатларини ўз вақтида олишда ҳаракатсизлик билан ноҳолисона баҳо бериш билан коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд	Юқори	Бўлимлар бошлиқлари
45.2	Жамиятда ишлаб чиқарилаётган тайёр махсулотлар сифатини текширишда ноҳолисона қараш ва бу махсулотларни ишлаб чиқариш учун фойдаланиб келинаётган қурилмалар ёки ускуналарни саноат хавфсизлиги бўйича мувофиқлик сертификатлари муддатларини назорат қилмаслик орқали коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд	Ўрта	Бўлимлар ходимлари
46.	Ишлаб чиқариш цехлари		
46.1	Цехларда ишлаб чиқарилаётган тайёр махсулотлар учун сарфланаётган хом ашё махсулотларини қўшиб ёзиш ёки камомадларни яшириш билан боғлиқ коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд	Юқори	Цехларни бошлиқлари
46.2	Цехларда ишлаб чиқарилаётган тайёр махсулотларга сарфланаётган хом ашё махсулотларини кўрсаткичларини цех раҳбарларини бўйруғи асосида ўзгартиш билан боғлиқ коррупциявий хавфлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд	Ўрта	Цех ишчи-ходимлари

4. Манфаатлар тўқнашувини тартибга солишда амалга ошириладиган коррупцияга қарши курашиш тартиб-таомиллар

Жамиятда иш фаолиятини олиб бораётган ишчи-ходимлар орасида манфаатлар тўқнашувига йўл қўймаслик ва коррупцион ҳолатларни олдини олиш мақсадида, жорий йилнинг 15 феврал кунига қадар **5237** нафар ишчи-ходимлар томонидан йиллик декларация тўлдирилиши таъминланди ва натижада 17 та реал ва 17 та потенциал манфаатлар тўқнашуви аниқланди.

Мазкур реал манфаатлар тўқнашуви юзасидан тузилган махсус комиссияси аъзолари томонидан корхонанинг 24.04.2025 йилдаги 165-сонли буйруғи 3-иловасига мувофиқ “Манфаатлар тўқнашувини бошқариш бўйича Низом” талабларига асосан белгиланган тартибда “Одоб-ахлоқ комиссияси” да кўриб чиқилди ва комиссиянинг 27.06.2025-йилдаги 9-сонли баёнига кўра, ходимлар билан ишлаш бошқармаси томонидан хал қилув чоралари кўрилмоқда.

Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Хисоб палатаси томонидан ўтказилан масофавий аудит натижасида (Непотизм бўйича) аниқланган 4377та рўйхат асосида ўтказилган ўрганишлар бўйича АЖда 34 та реал ва 14 та потенциал манфаатлар тўқнашуви аниқланиб, аниқланган ҳолатлар белгиланган тартибда “Одоб-ахлоқ комиссияси” да кўриб чиқилди ва комиссиянинг 14.11.2025-йилдаги 10-сонли баёнига кўра, 2025 йил 19 ноябр куни ходимлар билан ишлаш бошқармасига хал қилув чоралари кўриш учун юборилди. Кўрилган чоралар натижасида 26 та манфаатлар тўқнашуви бартараф этилди.

Контрагентларни текшириш

Корхонада тузилган шартномалар, ўтказилган тендер ва конкурслар қонунийлиги ва ички меъёрий ҳужжатларга мувофиқлиги даражаси

1. 2025-йилда Давлат харидларини амалга оширишда қонунларга амал қилиш, молиявий маблағлардан фойдаланишнинг оқилоналиги, тежамкорлиги ва самарадорлигини, шаффофликни таъминлаш ва манфаатлар тўқнашуви, таниш-билишчилик, қариндош-уруғчиликларни олдини олиш мақсадида, электрон савдо [“etender.uzex.uz”](http://etender.uzex.uz) сайти тизими орқали танловда қатнашган 73-та юридик шахс Йўриқнома асосида ўрганилди ва улардан ғолиб чиққан 19-тасига ўрнатилган тартибда шартнома тузиш учун ижобий хулоса берилди.

Танловда қатнашган юридик шахсларни ўрганиш вақтида 1-тасида қонун ва АЖ томонидан қўйилган талабларнинг бузилиши ҳолатлари аниқланиб, корхонанинг **4 327 070 424 сўм** маблағлари самарасиз ишлатилиши олди олинди:

Жумладан, 25120012450366-сонли ЛОТга асосан корхонанинг Аммиак-2 цехидаги “Компрессор, буғ турбинаси ва редукторларни таъмирлаш хизмати”ни сотиб олиш мақсадида, “etender.uzex.uz” сайти орқали энг яхши таклифларни танлаб олиш бўйича электрон танлов эълон қилинган. Ушбу хизматни бажариш учун **4 327 070 424 сўм** сўм таклиф қилинган.

“Махам-Chirchiq” АЖ томонидан техник топшириқда талаб қилинган ҳужжатлар бўйича 2-та номзод томонидан тақдим қилган маълумотларни ўрганиш давомида, Иштирокчилар учун баҳолаш баллари нотўғри берилганлиги натижасида, яъни 5-бандда 1-иштирокчининг сертификатлари мавжуд бўлмасада, аммо ундан баллари камайтирилмаган, 6-бандда 2-иштирокчининг олдин бажарилган иш бўйича шартнома мавжуд бўлмаганлиги, аммо у “Махам-Chirchiq” АЖда олдин шартнома асосида хизмат кўрсатган бўлса ҳам баллари камайтирилган. Бундан ташқари, 1-иштирокчининг Устав капитали атиги **2 900 000** (икки миллион тўққиз юз минг) сўмни, 2-иштирокчиники эса атиги **7 000 000** (етти миллион) сўмни ташкил этган, таклиф қилинган шартнома тўрт миллиард сўмдан ортиқ.

Бу эса, Ўзбекистон Республикасининг 2021-йил 22-апрелдаги ЎРҚ-684 сонли “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонунининг 10-моддасининг 3-хат боши (Давлат харидларининг ҳолислиги) 1-кичик хат боши (харид қилиш тартиб-таомиллари иштирокчиларига тенг имкониятларни таъминлаш) талабларга

зидлиги ва танловда шаффофликни ҳамда соғлом рақобатни таъминлаш ҳамда коррупциявий хавф-хатарларнинг олдини олиш мақсадида, 25120012450366-сонли ЛОТ танловини такрорий ўтказилиши таклифи берилди.

Шунингдек, Танловда қатнашган юридик шахсларни ўрганиш вақтида 4 тасида қонун ва АЖ томонидан қўйилган талабларга жавоб бермаслиги сабабли такрорий ўтказиш таклифи берилган.

Жумладан,

1) Жумладан, 25120012443921-сонли ЛОТга асосан “Махам-Чирчиқ” АЖнинг экскаватор хизматлари, “etender.uzex.uz” сайти орқали энг яхши таклифларни танлаб олиш бўйича электрон танловга эълон берилган ва ушбу хизматни бажариш учун **466 560 000** сўм таклиф этилган.

Танловга қўйилган хизматни амалга ошириш учун 3 та номзод иштирок этиб, улардан “ЯТТ Муродов Фарид Файзуллоевич” (43 балл), “Ширин” МЧЖлар (43 балл) танловда паст баллар олганлиги ва “ЯТТ Намозов Қодир Ашурович” (60 балл) юқори балл олганлиги, натижада ЯТТ “Муродов Фарид Файзуллоевич” ва “Ширин” МЧЖ лар етарли баллар (50 балл ўтиш балл) йиға олмаганлиги сабабли, экскаватор хизматлари бекор қилинди.

25120012443921 18.08.2025 йил танловини такрорий ўтказиш таклифи берилди.

2) 25120012447124-сонли ЛОТга асосан “Юк кўтарувчи лифтга техник хизмат кўрсатиш ва техник кўрикдан ўтказиш хизмати мақсадида, “etender.uzex.uz” сайти орқали энг яхши таклифларни танлаб олиш бўйича электрон танлов эълон қилинган. Ушбу хизматни бажариш учун **69 000 000** сўм таклиф қилинган. АЖ томонидан сотиб олаётган хизмат бўйича “Махам-Чирчиқ” АЖнинг 04.11.2020 йилда тасдиқланган 443-сонли буйруқнинг 3-илоvasи 5.2.2-банди талаблари бажарилмаганлиги, Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги ЎРҚ-684 сонли “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонунининг 10-моддасини 3-хат боши (Давлат харидларининг холислиги) 1-кичик хат боши (харид қилиш тартиб-таомиллари иштирокчиларига тенг имкониятларни таъминлашга) ва 2-кичик хат бошида (давлат харидлари субъектлари ўртасида рақобатни ва уларга нисбатан беғаразликни таъминлайдиган шарт-шароитларни яратишга) келтирилган талабларга зид эканлиги маълум бўлди. Юқоридагиларни инобатга олиб, танловда шаффофликни ва соғлом рақобатни таъминлаш ҳамда коррупциявий хавф-хатарларни олдини олиш мақсадида, 25120012447124-сонли ЛОТ танловни такрорий ўтказиш таклифи берилди.

3) 25120012446457-сонли ЛОТга асосан корхонанинг «Атмосферага ифлословчи моддаларнинг энг кўп рухсат этилган ташламалари (ЭРЭТ) экологик меъёрлар лойиҳасини ишлаб чиқиш ва ташлама манбаларини инвентаризация қилиш хизмати» мақсадида, “etender.uzex.uz” сайти орқали энг яхши таклифларни танлаб олиш бўйича электрон танлов эълон қилинган. Ушбу хизматни бажариш учун **120 000 000** сўм таклиф қилинган.

АЖ томонидан сотиб олаётган хизмат бўйича “Махам-Чирчиқ” АЖнинг 04.11.2020 йилда тасдиқланган 443-сонли буйруқнинг 3-илоvasи 5.2.2-банди

5.2.2-банди талаблари бажрилмаганлиги сабабли, 27.08.2025 йилдаги 25120012446457-сонли ЛОТ танловни такрорий ўтказиш таклифи берилди.

4) 25120012447215-сонли ЛОТга асосан корхонанинг “**Қозон агрегатларини ишга тушириш ва созлаш синовлари хизмати**” мақсадида, “etender.uzex.uz” сайти орқали энг яхши таклифларни танлаб олиш бўйича электрон танлов эълон қилинган. Ушбу хизматни бажариш учун **575 000 000** сўм таклиф қилинган.

“Махам-Chirchiq” АЖ томонидан техник топшириқда талаб қилган ҳужжатлар бўйича 10 та номзод томонидан тақдим қилган маълумотларни ўрганиш давомида, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги 276-сонли “Давлат харидларини амалга ошириш билан боғлиқ тартиб-таомилларни ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида”ги қарорининг 5-боб 5-банди Танлаш натижаларини сарҳисоб қилиш талаблари бажарилмаган, яъни 95-хати бошисига кўра миқдор кўрсаткичларига эга бўлмаган таклифнинг техник қисмининг мезонлари бўйича иштирокчиларнинг таклифларини баҳолашда хатоликларга йўл қўйилганлиги аниқланиб мазкур 16.09.2025 йилдаги 25120012447215-сонли ЛОТ танловни такрорий ўтказиш таклифи берилди.

Бундан ташқари, АЖ томонидан ваколатли омборхоналарни очиш бўйича ўтказилган очиқ танловда қатнашган қуйидаги номзодлар (МЧЖлар) АЖ томонидан қўйилган талабларга асосан тақдим этган ҳужжатлар ўрганилиб чиқилганда, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 1 мартдаги 91-сонли Қарори ва “Ўзкимёсаноат” АЖнинг 2021 йил 27 апрель кундаги 49-сонли ҳамда 2025 йил 13 июн кундаги 0086-сонли буйруқларда келтирилган талабларга жавоб бермаслиги аниқланиб, камчиликлар бартараф этилмагунча шартнома тузиш рад этилди.

№	Viloyat nomi	Omborlarni joylashgan joyi	Korxonona nomi
1	Andijon	Shaxrixon tumani	"AGRO XIMYA SAVDO" MChJ
2	Jizzax	Paxtakor tumani	"NATURAL KAPITAL" MChJ
3	Qoraqalpog'iston Respublikasi	To'rtkul tumani	"MUXAMMADSAFO-RUSTAM" MChJ
4	Xorazm	Xazorasp tumani	"Xazorasp Agro Mineral" MChJ
5	Xorazm	Shovot tumani	"Barakafert" MChJ
6	Xorazm	Xazorasp tumani	"HAZORASP AGRO MINERAL" MChJ
7	Xorazm	Xonka tumani	"XONQA OSIYO GROUP" ICHK
8	Xorazm	Urganch tumani	"URGANCH YANGIKIMYO" FX
9	Buxoro	Olot tumani	"Yodgor Agro Ta'minot Fayz" MChJ
10	Surxondaryo	Muzrabod tumani	"XALQABOD AGRO INVEST" MChJ

Корхона томонидан 2025 йилнинг 12 ой мобайнида 122 та тўғридан-тўғри шартномалар (шундан 54 таси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 сентябрдаги ПҚ-3953-сонли қарори талабларига асосан ва 68 таси ягона етказиб берувчилар билан тузилган) амалга оширилди ва уларни ўрганиш давомида манфаатлар тўқнашуви ҳолатлари аниқланмади.

“Махам-Чирчиқ” АЖда 2025-йилнинг 12 ой мобайнида жами тузилган шартномалар ва текширилган контрагентлар тўғрисида: Коррупцияга қарши ички назорат ва комплаенс бошқармаси томонидан текширилган контрагентлар, жами: - 243 та.

Шундан:

Энг мақбул таклифларни танлаб олиш йўли билан қатнашган юридик шахслар- 73 та; (улардан 19 та юридик шахсларга шартнома тузиш учун ижобий хулоса берилган)

Ваколатли омборларни очиш бўйича ўтказилган танловда қатнашган юридик шахслар - 43 та

(2025 йил 12 ойида танловдан ўтган 24 та юридик шахсларга шартнома тузиш учун ижобий хулоса берилган)

Тўғридан-тўғри шартнома тузилган контрагентлар - 122 та

Хайрия ва хомийлик ёрдами кўрсатиш бўйича тузилаётган юридик шахслар-5 та

АЖ томонидан тузилган шартномалар сони, жами -1696та.

Тўғридан-тўғри тузилган шартномалар - 122 та

Ваколатли омборларни очиш бўйича тузилган - 96 та (шундан 78 таси қўшимча келишув)

Хайрия ва хомийлик ёрдами кўрсатиш бўйича тузилган шартномалар - 3 та

Электрон харидлар орқали, жами – 1475 та.

Шундан:

Электрон дўкон орқали (xt-xarid.uz, xarid.uzex.uz) - 274 та;

Миллий дўкон (xarid.uzex.uz)- 25 та;

Электрон аукцион (xarid.uz xarid.uzex.uz) - 359 та;

Кооперация портали орқали ва дўкони (COOPERATION.UZ) - 506 та;

Энг мақбул таклифларни танлаб олиш йўли билан (etender.uzex.uz)-19 та;

Биржа савдолари (Уз РТСБ (Spot)) - 292 та.

Ишга кирувчи номзодларни текшириш

2025 йил 12 ой мобайнида 166 нафар ходим ишга қабул қилинган ва барчасига нисбатан текширувлар амалга оширилди ҳамда тегишли тартибда ҳисоботи тузилди. Шу билан бир қаторда, янги тахрирдаги коррупцияга қарши шартлар меҳнат шартномаларига киритилиши таъминланди. *(рейтинг баҳолаш бўйича берилган б-иловадаги “Меҳнат шартномаларига киритиладиган коррупцияга қарши шартларнинг тавсиявий намунаси” асосида).*

5. Таълим ва коммуникация

“Махам-Чирчиқ” АЖ ишчи-ходимлари ўртасида коррупцияга қарши муросасиз муносабатни шакллантириш, ходимларни ҳуқуқий онгини ва маданиятини юксалтириш мақсадида, Коррупцияга қарши ички назорат ва комплаенс бошқармаси томонидан 2025 йил 12 ой давомида корхонанинг барча бошқарма, бўлим, бўлинма ва цехларида ишловчи ишчи-ходимлар орасида жами 161 маротаба (2024 йил 12 ойида 142 маротаба) коррупцияга қарши курашиш бўйича мавжуд мавзулар, материаллар ҳамда корхонада соҳага оид ички меъёрий ҳужжатларнинг мазмун моҳияти бўйича умумпрофилактик тадбирлар ўтказилди.

Хусусан, ўтказилган умумпрофилактик тадбирларда 82 маротаба маърузалар, 71 маротаба давра суҳбатлари (шундан 3 та давра суҳбати Чирчиқ

тониги газетасига мақола қилиб чоп этилди) ва 8 маротаба семинар учрашувлар ўтказилди. Ўтказилган барча тадбирлар юзасидан тегишли тартибда баённома ва маълумотномалар расмийлаштирилди ҳамда барча тадбирлар “Махам-Чирчиқ” АЖнинг веб сайтыга, “Махам-Чирчиқ” АЖ ва “Махам-Чирчиқ” АЖ Коррупцияга қарши ички назорат комплаенс бошқармаси”нинг телеграммдаги ижтимоий саҳифаларига жойлаштирилди.

Шунингдек, 2025 йил 12 ой мобайнида, “Махам-Чирчиқ” АЖга янги ишга кирган ва бошқа лавозимларга ўтказилган жами 363 нафар ишчи-ходимлар билан “Махам-Чирчиқ” АЖнинг “Коррупцияга қарши сиёсати” ва “Хизмат одоби кодекси” бўйича ўқув тренинглари ўтказилди.

Жорий йил 22 сентябрдан 25 сентябргача АЖнинг муҳандис техник ходимлар ва ишчилар малакасини ошириш режасига мувофиқ корхона кадрлар тайёрлаш бўлимида “**Cert Academy Group**” ўқув дастурларининг **ISO 37001:2025 бўйича коррупцияга қарши ҳаракат менеджменти тизимининг менеджери “Ички аудит”** ўтказиш курси бўйича Коррупцияга қарши ички назорат ва комплаенс бошқармаси, ходимлар билан ишлаш бошқармаси, моддий техника таъминоти бошқармаси, сотиш ва тайёр маҳсулотларни биржа орқали сотиш бўлими, транспорт бўлими, корпоратив бошқарувни мувофиқлаштириш бўлими, ҳуқуқшунослик бўлими жами 15 нафар ходимлари ўқитилди ва тегишли сертификатлар тақдим этилди. Ўз навбатида коррупцияга қарши талаблар ва ахлоқий меъёрларни ҳисобга олган ҳолда ҳар доим ўз зиммасига олган мажбуриятларини виждонан бажариши, қонун ҳужжатларига қатъий риоя қилиши, тенг рақобат тамойилларига амал қилиши ва ҳалоллик, очиқлик ва виждонлиликнинг корпоратив маданиятини шакллантириш бўйича масъулиятини оширади.

21.10.2025 йилдаги 30-19/5-173609/25-сонли Ўзбекистон Республикаси ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси томонидан юборилган хатига асосан “Мақсам-Чирчиқ” АЖда жорий йил 15 ноябр кунидан бошлаб “**Давлат хизматида коррупцияга қарши курашиш**”, “**Давлат хизматида ҳалолликни таъминлаш**”, “**Коррупциявий хавф хатарларни бартараф этиш**” ва “**Коррупцияга қарши курашиш менежмент тизимини самарали ишлашини таъминлаш**” мавзуларида масофавий ўқув машғулотлар 15 нафар раҳбар ходимлар иштирокида таъминланди ва натижасига кўра, барча ходимлар мувоффақиятли тарзда ўтганликлари учун **Сертификатларни** қўлга киритишди.

АЖ Коррупцияга қарши ички назорат ва комплаенс бошқармаси масъул раҳбарлари томонидан ҳар ҳафтанинг чоршанба куни АЖнинг бошқарув раҳбарияти томонидан ўтказилаётган видеоселектор йиғилишларида, барча бошқарма, бўлим, бўлинма ва цех раҳбарларига жамиятда қабул қилинган коррупцияга қарши курашиш бўйича меъёрий ҳужжатлар талабларига риоя этишликлари борасида умумпрофилактик суҳбатлар орқали етказилиши таъминланиб келинмоқда.

«Махам-Чирчиқ» АЖ ишчи-ходимлари ўртасида коррупцияга қарши муросасиз муносабатни шакллантириш, ходимларни ҳуқуқий онгини ва маданиятини юксалтириш бўйича Коррупцияга қарши ички назорат ва комплаенс бошқармаси томонидан умумпрофилактик ишлар ва тадбирлар амалга ошириши таъминланди.

6. Коррупциявий хатти-ҳаракатлар ва ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги хабарлар

Корхона ишчи-ходимлари томонидан коррупциявий хатти-ҳаракатлар юзасидан олинаётган шикоят ва аризалар ҳамда тезкор хабарлар бўйича, Коррупцияга қарши ички назорат ва комплаенс бошқармаси томонидан уларнинг шахси сир сақланиши таъминланмоқда, шу билан бирга қулай ҳамда хавфсиз бўлган жамиятнинг ички ҳудудига видео кузатуvidан холи бўлган ҳудудларга жами 15 донга “Коррупцияга қарши ички назорат ва комплаенс бошқармаси шикоят кутиси” ўрнатилган ва соҳа йўналиши бўйича маълумотлар ва хабарлар олинishi йўлга қўйилган ҳолда чора-тадбирлар амалга оширилди.

Хусусан, ҳисобот даврида ишчи-ходимларнинг коррупциявий хатти-ҳаракатлари, манфаатлар тўқнашуви, коррупцияга қарши бошқа қонунбузарликлар билан боғлиқ ҳолатлар тўғрисидаги алоқа каналлари орқали марказий аппарат, ҳудудий ва таркибий бўлинмаларидан бевосита Коррупцияга қарши ички назорат ва комплаенс бошқармасига жами 4 та мурожаатлар келиб тушган. Шундан 1 та ёзма, 2 та (аноним) ариза шаклида ва 1 та ишонч телефонида аноним тарзда оғзаки мурожаатларни ташкил этади.

Мазкур келиб тушган мурожаатларнинг 2 таси ички меҳнат тартиби қоидаларини бузиш билан боғлиқ маълумотлар ва 2 таси эса, хизмат одобини бузилиши масаласи юзасидан мурожаатлар бўлган.

